

ТАРБИЯСИ ҚИЙИН ЎСМИРЛАРГА ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИНИ ЎҚИТИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Урунов А. (СамДУ магистранти)

Анотация. Табиий фанларни ўқитиш сифатини ва самарадорлигини оширишда педагогик технологияларни замонавий инфармацион технология имкониятлари даражасига кўтариш асосида уч турдаги ўқув машигулотларини маъруза, амалий машигулотлар ва лаборатория машигулотларининг ҳар бирини ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда иш юритиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Калит сўзлар. Замонавий инфармацион ва педагогик технологиялар, узлуксиз таълим, ўқув воситалари, дидактик, услубий, электрон, ўқув адабиётлар, телекоммуницион технологиялар, электрон дарслик.

Кириш. Илғор педагогик технологиялар ҳозирги даврдаги таълим жараёнини янги сифат кўрсаткичларига олиб чиқиш мумкин бўлган методлар тизимига айланди шундай экан олий ўқув юртларида ва касб хунар коллежларида талабларга билим бериш, уларнинг кўникма, малакаларини шакллантиришда янги педагогик технологияларидан фойдаланиш ва шу асосда таълим жараёнини йўлга қўйиш, жаҳон андозаларига мос келадиган мутахассисларни тайёрлашда қўл келади.

Материаллар ва методлар. Биз фаолият кўрсатаётган таълим муассасаси тарбияси қийин ўсмирлар ихтисослаштирилган мактаби бўлгани боис илмий ва оммавий мақолаларимиз ҳам тарбияси қийин ўсмирларни тарбиялашнинг методологик томонларини ишлаб чиқиш ва уни таълим жараёнида қўллашга асосланган.

Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги қонуни, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ва уларнинг ижросини таъминловчи бошқа ҳужжатларда ўқитишнинг замонавий инфармацион ва педагогик технологиялари ва шу орқали узлуксиз таълим самарадорлигини оширишга алоҳида эътибор берилган. Педагогик технологиялар таълим беришнинг замонавий усулларида энг муҳими бўлибуларни қўллаш талабалар ўқувчиларнинг шахсий сифатларини ривожлантириш ва такомиллаштириш имкониятини берувчи ўқув воситалари ҳисобланиб, ўзига хос дидактик ва услубий асосларига эгадир.

Натижалар ва уларнинг таҳлили. Электрон ва ўқув адабиётлари замонавий инфармацион ва телекоммуникацион технологияларга асосланган ўқув услубиятини, мустақил таълим олишнинг самарали усуллари қўллаш орқали ўқув материаллари ва илмий маълумотларни ҳар томонлама чуқур ўзлаштирилишига мўлжалланган бўлиб ўқувчиларда мустақил таълим олиш, ижодий фикрлаш, малака ва кўникмаларни шакллантиради. Электрон дарслик замонавий илмий билимларга асосланган маълумотларнинг жамланганлиги ва умумлаштирилганлиги, кўргазмага бойлиги, таълим

олувчиларнинг ёши ва психофизиологик хусусиятларининг ҳисобга олинганлиги билимларни назорат қилиш имкониятига эгаллиги, матнларнинг жозибали шаклда баён этилганлиги, асосий тушунча ва хулосаларнинг таърифлари аниқ ва равшан ёритилганлиги билан бошқалардан ажралиб туради.

Ҳар бир фан учун ишлаб чиқилган дастурлар бу фанларнинг педагогик технологияларни ҳар бирини ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қўллаш, услубий жиҳатдан ишлаб чиқиш, педагогиканинг долзарб масалаларидан биридир.

Шу боис, мамлакатимизда таълим тизимини такомиллаштириш ва уни ҳозирги замон талабларига мослаштириш, замонавий инфор­мацион технологияларга асосланган жаҳон андозалари даражасига кўтариш умумда­влат сиёсатининг муҳим таркибий қисмларидан бири ҳисобланмоқда. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ва узлуксиз таълим тизимини тадбиқ этиш асосида жамиятнинг ривожланиш талабларини ҳисобга олган ҳолда етук мутахассисларни тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш масалаларига катта эътибор берилган. Бу вазифаларни ҳал қилиш учун эса, биринчи навбатда ўқув жараёнини тубдан ислоҳ қилиш, унга жаҳоннинг ривожланган давлатларида кенг қўлланилаётган замонавий инфор­мацион ва педагогик технологияларни изчиллик билан тадбиқ этиш зарурдир. Булар барчаси баркамол авлод тарбиясида муҳим ўрин тутади.

Мактабларда, касб хунар коллежларида табиатшунослик асослари фанларини ўқитишда ҳам компьютер технологияларидан фойдаланиш, дарслар самарадорлигини таъминлаш, ўқувчилар ва талабалар билимини оширишда катта аҳамиятга эгадир. Бунда табиатшунослик фанини ўқитиш­гатегишли бўлган барча услубий кўрсатмаларга амал қилишни, уларни ўқувчиларга утказишда янги педагогик технологиялар даражасига етказишда эришишни назарда тутилади. Хусусан ўқув ва илмий материалларни вербал, икки ўлчамли график ва мультимедияли тарзда яъни уни уч ўлчамли: видеоли, графикли, анимацияли, матнли шаклда бериб бориш ҳисобга олинган.

Табиатшунослик фанидан электрон дарслик яратишда давлат таълим стандартлари талабларида келтирилганидек маъруза, амалиёт дарслари ҳажмидаги материалларни янги технологиялар асосида ишлаб чиқиш режалаштирилди. Бу фан бўйича:

- табиатшунослик фанларининг ривожланиш тарихи, фойдаланадиган услублари;
- инсоннинг географик муҳитга таъсирининг асосий шакллари;
- ландшафт қобиғининг бир бутунлиги ва экологияси;
- муҳитга мослашиш;
- биоценозлар, биогеоценозлар ва экотизимлар;
- биоценозда организмларда организмлар ўртасидаги муносабатлар;
- Орол денгизи ва Орол бўйи экологияси;
- табiiй муҳит ҳолатини назорат қилиш мониторинглаш;
- Ўзбекистондаги махсус муҳофазага олинган ҳудудлар;

-Ўзбекистон “Қизил китоби” каби мавзуларида информацион технологияларга асосланган электрон дарсликлар яратишга киришилди.

Бизнинг назаримизда, янги педагогик технологиялар ўқув мақсадларини рўёбга чиқаришга оид маълумотлар мажмуасини назорат топшириқларига айлантириш ва уларни бажарилишига эришиш орқали амалга оширилади ва бир йўла ўзлаштириш кўрсаткичини баҳолаш билан якунланади. Олий ва ўрта махсус таълим тизимидаги таълим жараёнида таққослаш орқали кузатишни таъминлаш ўқувчиларнинг билим эгаллашларини фаоллаштириш, мунтазам равишда мустақил ишлаш кўникмаларини шакллантириш, рейтинг тизими асосида баҳолаш каби технологик йўл-йўриқлар жорий қилинди.

Табиий фанларнинг ўқитиш сифатини ва самарадорлигини оширишда педагогик технологияларни замонавий информацион технология имкониятлари даражасигача кўтариш асосида уч турдаги ўқув машғулотларини маъруза, амалий машғулотлар ва лаборатория машғулотларининг ҳар бирини ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда иш юритиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Юқорида билдирилган фикр мулоҳазалардан шундай хулосаларга келиш мумкин;

-Янги педагогик технология назарияси ғояларидан фойдаланиш асосида ташкил этилган таълим жараёни баркамол шахс ва малакали мутахассисларни тарбиялаш борасида сифат кўрсаткичига эга бўлишига олиб келади. Бу ҳилда иш юритиш вужудга келган қийинчиликларни бартараф этишга тайёр бўлиш ҳар хил вазиятларга дуч келганда таҳлил асосида иш кўриш ва нарса ҳодисалар бўйича тўғри хулоса чиқаришга тайёрлайди.

-Таълим жараёнига янги педагогик технологияни тадбиқ этиш кадрлар тайёрлашга йўналтирилган умумий жараён мазмунининг сифат жиҳатидан ўзгаришини таъминлайди.

Урунов А.Тарбияси қийин ўсмирларга табиатшунослик фанини ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланиш//Қишлоқ хўжалигида ресурстежамкор технологияларни яратиш ва уларни ишлаб чиқаришга жорий этиш. Рес.илмий-амалий конференция материаллари. II қисм. Самарқанд, 2014, 232-233 б.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar ongiga milliy g'oyani singdirishning shart sharoitlari

J.Obloqulov, A.Urunov, A.Esonov Samarqand

О'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyatning ma'naviy yangilanishi milliy yangilanishi, milliy g'oyaning faol joriy etiliishi mamlakatning dadil qadamlar bilan rivojlanishini ta'minlamoqda.

Ayni vaqtda jahon hamjamiyatida hamjadal sifat o'zgarishlarning guvohi bo'lib turibmiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2001yil 11sentyabr voqealaridan keyin ko'pgina davlatlar o'zining ichki va tashqi siyosatlarini dunyoning tuzilishi va dunyodagi tartib qoidalariga nisbattan munosabatlarini o'zgartirdilar.

Milliy g'oya-yuksak ijtimoiy maqsad bo'lib, jamiyatni birlashtiradi va safarbar etadi. Milliy g'oyaning mohiyati mamlakatimiz prezidenti I.A Karimov tomonidan ta'riflab berilgan: "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat"-degan shior ostida barcha ijtimoiy qatlamlar va guruhlar, harakatlar, partiyalar O'zbekistonning barcha xalqi birlashishidir.

Hozirgi vaqtda oldimizda ijtimoiy ongni shakllantirishga erishishning shart-sharoiti, tadbir va mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasi turibti. Milliy istiqloq g'oyasi xuddi shunga xizmat qiladi.

Shu jihatdan etuk avlodni tarbiyalash malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash taraqqiyotning yuksak maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan bo'lib, uumumxalq, umum millat ishiga aylanadi, unga milliy g'oyaning tarkibiy qismi, uni amalga oshirishning muhim omili va mexanizmi sifatida qarashimiz kerak.

Ta'limda bolalar ongiga milliy g'oyani singdirishning izchil shakllari va metodlarini izlab topish, ularda vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalash kerak.

Barcha maktab o'quvchilari va o'qituvchilari oldiga qo'yilgan talablar reja asosida navbatma-navbat omalga oshirilmoqda va milliy g'oya to'g'ri tushuntirilib bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilmoqda. Ammo tarbiyasi qiyin bolalarning ixtisoslashtirilgan maktablarida milliy g'oyani tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishning o'ziga xos tomonlarini nazarda tutgan holda yondashish lozim.Tabiiyki tarbiyasi qiyin o'smirlar ixtisoslashtirilgan maktabga keltirilganda ularning aksariyati o'qish-yozishga o'rganishga mayili past bo'ladi. Tarbiyasi qiyin o'smirlar xatti-harakatini izchil va muntazam o'rganish, ular orasida axloq qoidalaridan chetga chiqish hollarining sabablari turlicha ekanini yaqqol isbotlamoqda.

Odatda tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy va axloqiy qonunbuzarliklar guruhiga ajratib o'rganiladi. Maxsus tadqiqotlarda qonunbuzar o'smirlardagi salbiy xatti harakatlarning vujudga kelish sabablariga qarab, tarbiyasi qiyin o'smirlarning taxminiy tuzilgan tipologiyasiga asosan guruhlariga ajratiladi:

-birinchi guruhga - andishasiz, qaysar o'smirlar kiritiladi. Buo'smirlar o'z fikr va qarashlarini oila, maktab va jamoatchilik fikriga qarshi qo'yadilar.

-ikkinchi guruhga-subutsiz, o'zining mustaqil fikri bo'lmagan o'smirlar kiritiladi. Bunday o'smirlar o'zlarining imkoniyat darajalarini baholay olmaydigan irodasi bo'sh o'smirlardir.

-uchinchi guruhga-xudbin, ikki yuzlamachi, subutsiz-og'ma o'smirlar kiritiladi.

-to'rtinchi guruhga mansub o'smirlarning affektiv kechinmalari o'qituvchi tomonidan ko'rsatib boriladi. Harbir o'smir o'quvchiga individual munosabatda bo'lish jamoada tarbiyasi qiyin bolalarga munosabatni yaxshilash va to'g'ri yo'lga qo'yish maktab pedagogik jamoasi tomonidan mikromuhitda alohida nazorat qilinadi.

Tarbiyasi qiyino'smir, axloqi batamom buzilgan, uzini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan jinoyatchi emas. Shu bois, ularning xulq atvorini

tadqiqot qilish orqali qayta tarbiyalash, ongida hosil bo'lgan illatlarni bartaraf qilish imkoniyati mavjud. Bu jarayon o'ta murakkab, ota-ona, o'qituvchilar, jamoat tashkilotlar, mahalla faollaridan katta kuch, sabr-toqat, mashaqaqatli mehnat va chuqur izlanish olib borishni talab etadi.

Tarbiyasi qiyin o'smirni qayta tarbiyalashda uning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarni e'tiborga olish harqaysi o'smirlarga individual yondashish, uning qiziqish va maylini aniqlash, tarbiyaga mos keladigan alohida metod va vositalarni tanlay bilish katta ahamiyatga ega. Albatta, ushbu shart-sharoitlarni amalga oshirish orqali tarbiyasi qiyin o'smirni qayta tarbiyalashga erishish mumkin.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni guruhlariga ajratish maqsadida, individual suhbatlashish, ularni savol varaqasini to'ldirishga o'rgatish, ularni uzluksiz ravishda kuzatib borish, yozgan bayon yoki insholarni tahlil qilish, shaxsiy xujjatlarni izchil o'rganish, sinf rahbari yoki tarbiyachisining kundalik daftarini yuritish, muammoli yoki munozarali vaziyatni vujudga keltirish asosida tajriba o'tkazish, individuall shaxsda yoki jamoada qanday o'zgarishlar ro'y berishini muttasil kuzatib boorish ularni qayta tarbiyalash uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Tarbiyasi qiyin o'smirlarni qayta tarbiyalashda rag'batlantirish, she'r yod oldirish, sahnalarda ijobiy rollarni ijro etishga undash orqali amalga oshiriladigan ishlar ijobiy natija beradi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni tadqiq qilish, o'rganish, tekshirish va qayta tarbiyalash jarayonida ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik qonuniyatlarga murojaat qilish tarbiya samaradorligini oshirishda shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda va jamoada sog'lom muhitni vujudga keltirishda juda katta yordam beradi.

Yuqoridagi jarayonlar bosqichma-bosqich amalga oshirilgandan so'ng tarbiyalanuvchilar ongidagi nuqsonlar yo'qola borib, ijobiy ko'nikmalarga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Navbatdagi bosqichda siyosiy mavzulardagi suhbatlar, tarbiyaviy soatlarda o'qituvchi va tarbiyachilar muntazam amaliy ishlarni amalga oshirishlari kerak. Bunda Vatan haqida, vatanimizda amalga oshirilayotgan insonparvarlik siyosati to'g'risida turli davra suhbatlari, siyosiy mavzudagi stenariylar asosida sahna ko'rinishlari tarbiyalanuvchilar ishtiorokida tayyorlanishi lozim. Sahna ko'rinishdagi ijobiy rollarni tarbiyalanuvchilar mukammal o'zlashtirilishi jarayonida ijobiy psixik o'zgarishlar ro'y beradi.

Bu holat, shubhasiz, qayta tarbiyalashning samarali natijasidir. Keyingi bosqichda tarbiyalanuvchilar ongiga istiqloq g'oyasini singdirishning izchil shakllari va metodlarini topish ularda vatanparvarlik fazilatini tarbiyalash kerak.

Ta'lim dasturining moslashuvchanligini va harakatchanligini ta'minlash, ta'limni differensiyalashtirish muammosi biolan aloqadordir.

Hozirgi pedagogning muhim vazifalardan biri, milliy istiqloq g'oyasini bolalar va o'quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chiqib, uni amlga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimiz prezidenti Karimov. I, A shunday degan edi: "Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqloq g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilar, ilm fan va madaniyat namoyandalari, avvalo ma'naviy-ma'rifiysoha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish, uning asosiy tamoillarini odamlar qalbiga va ongiga singdirishga

qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish zarur". Davlat talablari va tayanch dastur uch qismdan iborat: "Bolalarning jismoniy tarbiyasi", "Bolalarning nutqi va fikrini rivojlantirish" va "Ma'navioy kamolot" ("Balalarning ma'naviy kamolotini ta'minlash"). Davlat talablari va tayanch dasturni hayotga joriy qilishda ota-onalar va tarbiyachilarga yordam tariqasida "Bolangiz maktabga tayyormi?", "Uchinchi ming yillikning bolasi" kabi amaliy qo'llanmalar yaratildi. Bularda milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan mavzudagi o'yinlar va mashg'ulotlar o'z ifodasini topgan.

Bevosita tarbiyasi qiyin bolalar ta'limi va tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ota-onalar milliy istiqlol g'oyasi to'g'risidagi bilimlarga egabo'lishlari kerak.

Mana shuning uchun ham yaratiladigan qo'llanmalar mazmunida milliy istiqlol g'oyasi asosiy o'rinni olishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti (DTS) ning mazmuniga ko'ra milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalarini kiritilgan: Vatan va davlat to'g'risidagi tushuncha, davlat ramzlari, milliy qadr-qimmat tuyg'usi, hayotidagi muhim voqealar va boshqa milliy qadriyatlar.

"Odobnoma" o'quv dasturi mavzusining asosida milliy istiqlol g'oyasi yotadi. Masalan, dastur mazmunida maxsus bo'linmalar: "Vatan muqaddas ona, unga jon fido"(4soat), "Oila muqaddas makon"(9soat), "Milliy o'yinlar"(6soat), "Milliy bayramlar"(3soat), Prezident Islom Karimov Istiqlol asoschisi"(1soat), "Istiqlol tamoyillari"(1soat), "Vatan tuyg'usi"(2soat), "Vatanni sevmok iymondandir"(4soat), "Mahalla-mamlakat tayanchi"(1soat).

Yuqorida bayon qilinganlardan tashqari "Odobnoma" o'quv fanining mazmunini boyitish (1-4sinflar) uchun dastlab g'oya to'g'risidagi tushunchalarni kiritish maqsadga muvofiq. Bunday milliy istiqlol g'oyasi- "Vatanni sevmok iymondandir" fan va kasb hunarni yuksak ma'naviyat bezaydi va boshqa mavzular, ertaklar, an'analar, rasm-rusumlar, bayramlar, halq o'yinlari vositasida singdirilishi kerak.

Harbir sinf o'quvchilariga nisbattan minimal talablarni ishlabchiqish zarur, bu talablar faqat o'qituvchilarda emas, ayni chog'da o'quvchilarda va ularning ota-onalarida ham bo'lishi kerak. Shunda o'qituvchilar va ota-onalar o'quv yili davomida milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat va axliqqa daxldor kurslar va fanlar bo'yicha qanday bilimlarga ega bo'lishlarini bilib oladilar.

Olimlar va metodistlar oldida "Odobnoma", "Vatantuyg'si", "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" o'quv fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standarti yoki Davlat talablarini hozirgi o'quv-metodik majmuasi asosida tayyorlash vazifasi turadi. Milliy istiqlol g'oyasi o'rta umumta'lim maktablarining o'quv rejasiga kirgan boshqa ijtimoiy fanlar mazmuniga ham daxldordir.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni tarbiyalashning keyingi bosqichlarida o'quv dasturi va darsligiga milliy istiqlol go'yasi bilan bog'liq quyidagi mavzularni kiritish tavsiya etiladi:

1. G'oya va mafkura tarixi
2. G'oya va mafkuraning jamiyat rivojlanishidagi yaratuvchanlik roli.
3. Tarixda g'oya va mafkurani mutloqlashtirish oqibatilari.
4. Buzg'unchi g'oya va mafkuralar.

5. Rivojlanishning o'zbek modeli va jamiyat taraqqiyotida uning ahamiyati.

6. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari.

7. "Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga" konsepsiyasini hayotga joriy etishda mafkuraning ahamiyati.

8. Din, dinlar oro tolerantlik va mafkura.

Milliy g'oyaga aloqador mavzuni dasturning ayrim mavzulariga qo'shib kiritish lozim. Tavsiya qilingan mavzularni darslikda mustaqil bayon etish maqsadga muvofiq.

Halq og'zaki ijodi, klassik va zamonaviy adabiy asarlarni o'quv dasturi va darsliklarga kiritish milliy istiqlol g'oyasini amalga oshirish nuqtai nazaridan yondashish kerak. Masalan, adabiyot bo'yicha dasturga yuqorida bayon qilingandan kelib chiqib, quyidagi mavzularni kiritish tavsiya qilinadi:

1. G'oya inson mafkurasining mevasi.

2. Rivoyat va hikoyalar-afsonalarning g'oyaviy tizimi.

3. Zardusht, Suqrot, Platon, Konfusiy, Maxatma Gandi va boshqalarning yaratuvchilik g'oyalari.

4. Milliy g'oya asoslari: ertak, afsona, milliy qahramonlar hayoti.

5. Yetuk insonni milliy istiqlol g'oyasi ruhida shakllantirishda "Avesto", Qur'on, hadislar, diniy ilmlar va boshqa g'oyalarning ahamiyati.

Yuqorida keltirilgan beshta mavzu o'quv rejasida o'z ifodasini topishi, tarbiyasi qiyin o'smirlar ongiga bosqichma –bosqich singdirilishi ular ongidagi ma'naviy bo'shliqni to'ldiradi va yot g'oyalarga nisbatan immunitetni mustahkamlaydi.

Xulosa shundaniboratki, muhimi tarbiyasi qiyinbolalarda o'z-o'zini tarbiyalash immunitetini hosil qilish uchun ularda o'z-o'ziga nisbatan tanqidiy qarash qobiliyatini shakllantirish orqali ularda mafkuraviy immunitetni hosil qilish o'qituvchi va tarbiyachilar oldida turgan dolzarb vazifadir.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining poydevori" Toshkent 1997 y.
2. Bojovich L. "Lichnost i yeyo formirovanie v detskom vozraste" Moskva 1968y.
3. Xristomatiya po vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologii. Moskva 1969y
4. E.G'oziyev "Ontogenez psixoloyasi" Toshkent 2010 y.

J.Obloqulov, A.Urunov, A.Esonov Samarqand. Tarbiyasi qiyin o'smirlar ongiga milliy g'oyani singdirishning shart sharoitlari// Международной научно-практической интернет-конференции «Проблемы и перспективы развития науки в начале третьего тысячелетия в странах Европы и Азии». Переяслав-Хмельницкий. 29-30-апреля 2014 г. –С 126-128.

ТАРБИЯСИ ҚИЙИН ЎСМИРЛАР ОНГИГА МИЛЛИЙ ИСТИҚЛОЛ ҒОЯСИНИ СИНГДИРИШНИНГ ШАРТ ШАРОИТЛАРИ

Sam.DU 1-bosqich magistranti: **Urunov. A**

Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ислохатлар жамиятнинг маънавий янгилиниши, миллий истиқлол ғояларининг фаол жорий этилиши муҳим аҳамиятга эга бўлди. Миллий ғоянинг моҳияти мамлакатимиз президенти Каримов И.Атомонидан таърифлаб берилган: “Ўзбекистон келажаги буюк давлат” деган шиор остида барча ижтимоий қатламлар ва гуруҳлар, ҳаракатлар, партиялар Ўзбекистоннинг барча ҳалқи бирлашишидир. Ёш авлодни тарбиялаш ёш малакали, рақобатбардош кадрларни тайёрлаш тараққиётнинг юксак мақсадларига эришишга йўналтирилган бўлиб, у умумхалқ, умуммиллат ишига айланади, унга миллий истиқлол ғоясининг таркибий қисми, уни амалга оширишнинг муҳим механизми сифатида қарашимиз керак. Таълимда миллий истиқлол ғоясини болалар онгига сингдиришнинг изчил шакллари ва методларини топиш, уларда ватанпарварлик фазилатларини тарбиялаш керак.

Ҳозирги педагогнинг муҳим вазифалардан бири, миллий истиқлол ғоясини болалар ва ўқувчилар онгида шакллантириш тадбирлари ва механизмларини ишлаб чиқиб, уни амалга оширишдан иборатдир. Мамлакатимиз президенти Каримов И.А шундай деган эди: “Эндиги вазифамиз шундан иборатки, миллий истиқлол ғояси тушунчалари асосида кенг жамоатчилик, зиёлилар, илм фан ва маданият намояндалари, аввало маънавий таърифий соҳа ходимлари миллий мафқурани такомиллаштириш,

унинг асосий тамойилларини одамлар қалбига ва онгига сингдиришга қаратилган ишларни янги босқичга кўтариш зарур”.

Барча мактаб ўқувчилари ва ўқитувчилари олдида қўйилган талаблар режа асосида миллий истиқлол ғояси тўғри тушунтирилиб босқичма-босқич амалга оширилиб борилмоқда. Аммо тарбияси қийин болаларнинг ихтисослаштирилган мактабларида миллий истиқлол ғоясини тарбияланувчилар онгига сингдиришнинг ўзига хос томонларини назарда тутган ҳолда ёндашиш лозим. Табиийки тарбияси қийин ўсмирлар ихтисослаштирилган мактабда 10-12 ёшдаги болалар мактабга келтирилганда уларнинг аксарияти ўқиш ёзишга, ўрганишга майили паст ўсмирлар бўлади.

Тарбияси қийин ўсмирни қайта тарбиялашда унинг ўзигагина хос бўлган хусусиятларни эътиборга олиш ҳар қайси ўсмирга индивидуал ёндашиш, унинг нималарга қизиқиши ва майлини аниқлаш, тарбияга мос келадиган алоҳида усул ва чораларни танлай билиш катта аҳамиятга эга. Албатта ушбу шарт шароитларни амалга ошириб, тарбияси қийин ўсмирни қайта тарбиялашга эришиш мумкинлигини тажрибаларда кузутдик.

Тарбияси қийин ўсмирларни гуруҳларга ажратиш мақсадида, индивидуал суҳбатлашиш, уларнинг савол-жавобларини тўлдиришга ўргатиш. Уларни узлуксиз равишда кузатиб бориш. Ёзган баён ёки иншооларни таҳлил қилиш, шахсий ҳужжатларини изчил ўрганиш, синф раҳбари ёки тарбиячисининг кундалик дафтарини юритиш, муаммоли ёки мунозарали вазиятни вужудга келтириш асосида тажриба ўтказиш, индивидуал шахсда ёки жамоада қандай ўзгаришлар рўй беришини муттасил кузатиб бориш уларни қайта тарбиялаш учун муҳим имкониятлар яратди. Тарбияси қийин ўсмирларни қайта тарбиялашда рағбатлантириш, саҳналарда ижобий ролларни ижро этишга ундаш орқали амалга ошириладиган ишлар яхши натижа беради.

Тарбияси қийин ўсмирни тадқиқ қилиш, ўрганиш, текшириш ва қайта тарбиялаш жараёнида ижтимоий муҳитдан ташқари педагогик-психологик қонуниятларга мурожаат қилиш тарбия самарадорлигини оширишда шахслар аро муносабатларни тўғри йўлга қўйишда ва жамоада соғлом муҳитни вужудга келтиришда жуда катта ёрдам беради.

“Одобнома” ўқув дастури мавзусининг асосида миллий истиқлол ғояси ётади. Масалан, дастур мазмунида махсус бўлинмалар: “Ватан муқаддас она, унга жон фидо”(4 соат), “Оила муқаддас макон”(9 соат), “Миллий ўйинлар”(6 соат), “Миллий байрамлар”(3 соат), “Истиқлол тамойиллари”(1 соат), “Ватан туйғуси”(2 соат), “Ватанни севмоқ иймондандир”(4 соат), “Маҳалла мамлакат таянчи”(1 соат).

Юқорида баён қилинганлардан ташқари “Одобнома” ўқув фанининг мазмунини бойитиш (1-4 синфлар) учун дастлаб миллий истиқлол ғояси тўғрисида тушунчаларни киритиш мақсадга мувофиқ. Бунда миллий истиқлол ғояси “Ватанни севмоқ иймондандир”, “Қасб ҳунарни юксак маънавият безайди” ва бошқа мавзулар, эртақлар, анъаналар, расм-русумлар, байрамлар, халқ ўйинлари воситасида сингдирилиши керак. Шу билан биргаликда ёшларда миллий ғоя асосида экологик таълим-тарбия

бериб бориш муҳим аҳамиятга эга. Экологик тарбия тарбияси қийин ўсмирларда табиатга, биосферага бўлган янгича муносабатларини шакллантиришда муҳим босқич ҳисобланади. Бу ўз навбатида мустақил республикаimizда юксак экологик маданиятли, ватанга, элига хизмат қиладиган инсонларни шаклланишида асос бўлиб хизмат қилади.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки миллий истиқлол ғоясини тарбияси қийин ўсмирларда шакллантириш муҳим босқич ҳисобланади. Таълимда миллий истиқлол ғоясини болалар онгига сингдиришнинг изчил шакллари ва методларини топиш, уларда ватанпарварлик фазилатларини тарбиялаш керак.

Урунов А. Тарбияси қийин ўсмирлар онгига миллий истиқлол ғоясини сингдиришнинг шарт-шароитлари//”Интеллектуал салоҳиятли иқтидорли ёшлар” мавзуидаги ёш олимлар, магистрант ва талабаларнинг анъанавий XI республика илмий-амалий конференция материаллари III қисм. Самарқанд, 2014. 73-74 б.

Ixtisoslashtirilgan maxsus maktab tarbiyalanuvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish-dolzarb pedagogik muammo sifatida

Sam.DU 1-bosqich magistranti: **Urunov. A**

Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ga muvofiq o'tkazilayotgan islohotlar ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgandir. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim DTS va o'quv dasturlarining ilg'or maktablarda tajriba–sinovdan o'tkazilganligi hamda uni 1999-2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich joriy etilayotganligi ta'lim tizimida jahonning rivojlangan mamlakatlarida qo'llanib kelayotgan pedagogik-psixologik usullarning joriy etishni maktabning hayotiy ehtiyojiga aylanib qoldi.

Psixologiyani bilish tarbiya ishlarida juda zarurdir. Shaxs tarkib topishi jarayonining psixologik qonuniyatlarini, jumladan, axloqiy odatlar va ishonch-e'tiqod tarkib topishining qonuniyatlarini bilmay turib, to'g'ri tarbiya berish mumkin emas.

Ma'lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga nisbattan psixologik jihattan to'g'ri keladigan va yaroqli bo'lgan tarbiyaviy ta'sir ko'pincha o'smirlarga nisbattan yaroqsiz va xato bolishi mumkin. Biroq o'qituvchi, tarbiyachi shunchaki

ma'lum yoshdagi o'quvchi bilan emas, balki ma'lum bir o'quvchi bilan individual odam bilan ishlaydi.

O'qituvchining bilishi mutlaqo zarur bo'lgan individual farqlar bitta yosh doirasida nihoyat darajada katta bo'ladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti, o'quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iboratdir. Bu o'quvchining ruhiy dunyosidan xabardor bo'la bilishni, psixologik jihatdan to'g'ri kuzatish tashkil qila bilishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishni taqozo qiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlarning hammasini bilish o'z-o'zicha hali ta'lim-tarbiya ishlarida muvaffaqiyatga erishish garovi bo'la olmaydi. Lekin juda ko'p nuqsonlarning oldini olish imkonini beradi, chunki bu qonuniyatlarda o'qituvchini ko'r-ko'rona harakat qilish zaruratidan qutqaradi.

Hozirgi zamon pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biri maktabdagi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu narsa yangi ta'lim tizimiga o'tish munosabati bilan ta'limning mazmunida yuzaga keladigan jiddiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Pedagogik psixologiya shu bilan birga o'quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini, bu jarayonning umumiy qonuniyatlarini va individual farqlarini, turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirni o'rganadi hamda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashning pedagogik asoslarini tekshiradi.

Nihoyat, pedagogik psixologiya ta'lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi bo'lgan o'qituvchi shaxsini va o'qituvch mehnatining xususiyatlarini o'rganadi. Bunda o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishlaridagi yutuqlarni ta'minlovchi sifatlarini ajratib ko'rsatish bilan birga uning pedagogik bilimlari, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik sharoitlari aniqlanadi.

Ravshanki, na yosh va na pedagogik psixologiya pedagogik jarayonni tashkil qilish uchun to'g'ridan to'g'ri reseptlar hamda qat'iy tavsiyanomalar berishni da'vo qilmaydi. Lekin yosh va pedagogik psixologiya materiallari va xulosalaridan ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil qilishda foydalaniladi. O'z davrida ana shu fikrni ajoyib rus pedagogi K. D. Ushinskiy yaxshi ifodalab bergan. K. D. Ushinskiy o'zining "Inson-tarbiya sifatida" degan mashhur kitobining muqaddimasida bunday deb yozgan: "Biz pedagoglarga unday yoki bunday qilinglar deb aytmaymiz; hatto biz ularga: o'zingiz boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarning qonunlarini o'rganing va bu qonunlarga amal qilib, hamda ularni tadbir qilmoqchi bo'lganingiz sharoitlarni xisobga olib ish qiling deb aytamiz".

Maxsus maktab internat tarbiyalanuvchilari bilan ishlash jarayonida, o'spirinlarning asab tizimining kuchli yoki kuchsiz qo'zg'alish tiplarini bilish hamda oilaviy shart-sharoitlaridagi muhit ta'sirini nazarda tutish zarur bo'ladi. Tarbiyasi qiyin bolalar paydo bo'lishining ikkita asosiy sababi: kattalik hissining yuzaga kelishi va oilada, maktabda nazoratdan chetda qolishidir.

O'g'il bolalarda kattalik hissi yuzaga kelganda, yurish-turishi, axloq mazmuni munosabat uslublari o'zgartiradi. Hatti-harakatlari o'xshasa-o'xshamasa kattalarga "taqlid" qila boshlaydi. Televizor va kinolarda ko'rganlariga "taqlid" qila boshlaydi. Bo'sh vaqtini nazoratsiz O'tkazishga o'rgangan o'smir ko'cha-

kuyda bevaqt behuda yuradigan bo'lib qoladi. Bunday sharoitda pulga ruju qo'yish, turli xil qonunbuzarlik holatlarini amalga oshirishi mumkin. O'smirni bo'sh vaqtlarida nazoratsiz qoldirish noxush holatlar sari yetaklaydi. Bolalari maktabda qanday yuradi, kimlar bilan uchrashadi, o'rtoqlari kim, ota-ona bilishi zarur. Agar o'smirning yurish-turishi nazorat qilinmasa, bamaylixotir yurishga o'rganib qoladi va bu salbiy adaptasiyadan voz kechishi qiyin bo'ladi. O'smirda paydo bo'lgan salbiy ko'nikmalarni bilib qolib, uni haqorat qilish, kaltaklash aslo mumkin emas. Aksincha, uning salbiy odatlari o'ziga yomonlik keltirishini ishonchli dalillar bilan tushuntirish zarur.

Jahon psixologlari olib borgan tadqiqotlar tarbiyasi qiyin o'smirlarning paydo bo'lishiga ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik omillar ham sabab bo'lishini ko'rsatmoqda. O'smirlar harakatlarini izchil va uzluksiz o'rganish, ulardagi chetga og'ish deviantlik ko'rinishlari turlicha bo'lishini ta'kidlamokda. Oiladagi nosog'lom muhit va sharoit ham tarbiyasi qiyin o'smirlarning yashashi va o'qishi uchun imkoniyatlar, qulay sharoitlar yo'qligi uning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Unda ota-onasidan norozilik kundan-kunga avj olib, ichki tug'yonga aylanadi. Alam ustida jinoyat qilishga ham borib yetadi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlar shakllanishining sabablaridan yana biri, o'quvchining o'qishga nisbattan salbiy munosabatidir. Bu holning paydo bo'lishiga sabab o'smirning aqli zaifligidir. Jismoniy nogironligini sabab qilib ko'rsatish mutlaqo noto'g'ri. Buning sababi bizning fikrimizcha, o'smirlar o'quv faoliyati usullari, o'quv ko'nikmalari va malakalarining yetarli darajada tarkib topmaganligi, fikrlash qobiliyatining nisbatan past bo'shligi o'qituvchi tomonidan hisobga olinmasligidir. Buning natijasida mazkur o'smir jamoa o'rtasida o'rnini yo'qotib boradi. Nihoyat u jamoa o'rtasida yakkalanib qoladi. Nihoyat jamoa o'rtasida borgan saridag'allik, o'jarlik qila beradi. Oqibatda o'smir sinf jamoasidan yuz o'girib, ko'chada yuradigan ulfatlar bilan aloqa qilish yo'liga kiradi. Bunday o'smirlar ro'xatga olinib, "Alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berishga ixtisoslashtirilgan maktab" larga yuborilib, ta'lim-tarbiya jarayoni davom ettiriladi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda tarbiyasi og'ir o'smirni qayta tarbiyalashda uning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini e'tibarga olish har qaysi o'smirlar individual yondashish, uning nimalarga qiziqishi va moyilligini aniqlash, tarbiyaga mos keladigan alohida usul va choralarni tanlay bilish katta ahamiyatga egadir. Ota-onalar ham, o'qituvchilar ham, jamoachilik vakillari ham bu qoidqlarga amal qilsalar yaxshi natijalarga erishishi mumkin.

Axloqiy me'yorlar yetarlicha shakllanmagan, ma'naviy hissiy qarashlari tarkib topmagan o'smirlar halqaro terrorchi va ekstremistik guruhlarining jonli quroliga aylanishi hech gap emas. Ularga istiqloq yo'lidan borayotgan O'zbekistondagi g'oyaviy bo'shliqni o'z g'oyalari bilan to'ldirib, mamlakatimiz xududidagi beqiyos boyliklarga egalik qilish, halqimizni o'z siyosati, o'z hukmronligiga bo'ysundirishni, eng yomoni, mana shu muhim geopolitik maydonni o'z ta'siri doirasiga olishni orzu qilmoqda. Ularning maqsadi axloqsizlikni yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga, tariximiz, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishdan, ommaviy madaniyatni targ'ib etishdan iborat.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tartishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvali, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona-Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz o'zligini, shu bilan birga, chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil, aqidaparastlarning "da'vati" ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. G'oyaviy tarbiya jarayonida alohida sharoitlarda maxsus maktabda tarbiyalanayotgan o'smirlarda yot va zarurli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu davomli jarauondir.

Maxsus maktab tarbiyalanuvchilarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, tarbiyalanuvchilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki tarbiyalanuvchilarda oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. Manfaatlar bor erda muqarrar ravishda g'arazli, nopok g'oyaviy niyatlarni amalga oshirish uchun intilishlar ham bo'ladi.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni tarbiyalashda ijtimoiy fanlar muhim rol o'ynaydi. G'oyaviy immunitetni shakllantirish-g'oyaviy tarbiyaviy ish samaradorligining muhim mezonini hisoblanadi. Milliy mafkura jamiyatdagi barcha sosial qatlamlar va guruhlarining umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi vosita hisoblanadi. Mafkuraviy maqsad-g'oyaviy faoliyatni amalga oshirishdan kutiladigan ideal natijadir. Maqsadni aniq-ravshan idrok etish inson va janiyat faoliyatiga izchillik, sobitqadamlik va faollik bag'ishlaydi. Milliy istiqlol mafkurasining oily maqsadi-Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalq faravonligi g'oyalari tayangan xolda xalqimizni mustaqillikni mustshkamlash, O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etishdur.

Hozirgi paytda kimning g'oyasi kuchli, fikri tiniq, mafkurasi hayotiy bo'lsa o'sha g'alaba qozonadi. Bu insoniyatning XX asr tarixidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biridir. Milliy mafkura xalqning tub manfaatlari va maqsadlarini o'zida ifoda etadi jamiyat a'zolarini shu maqsad atrofida jipslashtiradi.

Prezidentimiz Isalom Karimov milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadini shunday belgilaydi: "Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'iy nazar har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho me'rosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas Vatan uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish-milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir".

Metodist olimlar ham bir qator muammolarni hal qilishi kerak. Masalan, ular “Odobnoma”, “Vatan tuyg’usi”, “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” o’quv predmetlari bo’yicha DTS loyihasining eksperimental tekshiruvi asosida takomillashtirishlari lozim. Bizning fikrimizcha, mazkur me’yoriy xujjatni Davlat ta’lim standartlari deb emas, balki “Davlat talablari” deyilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki axloq va ma’naviyatni standartlashtirish mumkin emas. Shunga muvofiq boshlang’ich ta’limga mo’jallangan “Odobnoma” va umumiy o’rta ta’limga mo’ljallangan “Milliy g’oyasi va ma’naviyat asoslari” o’quv predmetlari bo’yicha Davlat talablarini takomillashtirish zarur.

Xar bir sinf tarbiyalanuvchilariga nisbattan minimal talablarni ishlab chiqish zarur, bu talablar faqat tarbiyalanuvchilar emas, ularning ota-onalarida ham bo’lishi kerak. Shunda tarbiyalanuvchilar va ota-onalar o’quv yili davomida Milliy g’oya, ma’naviyat va axloqqa daxldor kurslar va fanlar bo’uicha qanday bilimga ega bo’lishlarini bilib oladilar.

Ixtisoslashtirilgan maxsus maktab tarbiyalanuvchilari bunday kurslarni o’zlashtirgandan so’ng ong saviyasi yuksak fikrlash doirasi keng o’smirlarga aylanadilar. Ularning ongida yot g’oyalarga o’rin qolmaydi. Miyasiga yot g’oyalar zo’rlab kiritilganda ham, yoshlarimiz ongidagi mafkuraviy immunitet ildiz otgan bo’lib, chetdan zo’rlab kiritilgan yot g’oyalarni parchalab tashlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Uzluksiz ta’lim tizimiga mansub. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktab tarbiyalanuvchilarida mafkuraviy immunitetni ularga beriladigan umumiy ma’lumot jarayonida hosil qilish pedagogika fani oldida turgan muhim dolzarb muammolardan biridir.

Urunov A. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktab tarbiyalanuvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish-dolzarb pedagogik muammo sifatida//Ziyokor ilmiy-uslubiy jurnal. Samarqand: VPQQTMOI nashri, 2014 yil 4-son, -12-14 b.